

## MUSULMON SHARQIDA “BAHS-MUNOZARA” JANRIDA YOZILGAN MANBALARNING SHAKLLANISH TARIXI

Salimova Guzal Qahramon qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti

E-mail: [sevda\\_1222@list.ru](mailto:sevda_1222@list.ru)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Musulmon Sharqida shu sohada bahs-munozara yuritayotgan allomalarimiz tomonidan jadalga kirishganda qanday usullardan foydalanilish mumkinligi, odob-axloq me’yorlarini amalda qay usulda foydalanish mumkinligi tadqiq qilingan. Azuziddin Iyjiyning “Bahs-munozara odobi” risolasi Musulmon Sharqida yozilgan bahs-munozaraga oid eng yorqin va beba ho asarlardan biri bo‘lib, u Sharq didaktikasiga axloq me’yorlari asosida bahs-munozara qilishning yanggi uslubini olib kirdi deb bemalol ayta olamiz.*

**Kalit so‘zlar.** Bahs-munozara, jadal, ilmiy munozara, Azuziddin Iyjiy, Abdurrahmon Samarqandiy, Ashraf Husayn Samarqandiy, Arastu falsafasi, peripatos, istedlol, induksiya, deduksiya, didaktika, adab, axloq.

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье, какие методы могут использовать наши ученые, которые дискутируют в этой области на мусульманском Востоке, какие методы могут быть использованы на практике и как нормы этикета могут быть использованы на практике. Трактат Азузиддина Ийджии «Этикет дебатов» является одним из самых блестящих и бесценных трудов по диспутам, написанных на мусульманском Востоке, и можно с уверенностью сказать, что он ввел в дидактику Востока новый стиль дебатов, основанный на этических нормах.*

**Ключевые слова.** Дебаты, дебаты, научная дискуссия, Азузиддин Иджи, Абдурахман Самарканди, Ашраф Хусейн Самарканди, философия Аристотеля, перипатос, истедлол, индукция, дедукция, дидактика, нравы, этика.

### ABSTRACT

*In this article, what methods can be used by our scholars who are debating in this field in the Muslim East, what methods can be used in practice, and how the standards of etiquette can be used in practice. Azuziddin Iyji's treatise "Etiquette of Debate" is one of the most brilliant and invaluable works on debate written in the Muslim East, and we can easily say that he introduced a new style of debate based on*

*ethical standards to the didactics of the East.*

**Keywords.** Debate, debate, scientific discussion, Azuziddin Ijji, Abdurrahman Samarkandi, Ashraf Husayn Samarkandi, Aristotle's philosophy, peripatos, istedlol, induction, deduction, didactics, manners, ethics.

## KIRISH

Qadimgi Sharq ilmiy-madaniy muhiti rivojlanishining bir qator omillari mavjuddir. Ulardan biri Sharqda bahs-munozara yuritish odoblaridir. Munozara, raddiya beruvchi bilan bahs qilib, argumentlar keltirib haqiqatga yetadigan bilimning bir turidir. [1] Sharqona bahs-munozara qilish va qoidalari, tajribalarini o'rganish hozirgi kun uchun zaruriy bo'lgan masalalardan biri deb hisoblanadi. Bahs-munozara qilish uslublari va usullari paydo bo'lishida Musulmon sharqi allamolarining o'rni beqiyosdir.

## Asosiy qism

Musulmon Sharqida bahs-munozaraga oid yozilgan manbalar bahs-munozara odobi nazariyasining rivojlanishida juda ham katta rol o'ynaydi. Bu borada G'azzoliy, Azudiddin Iyjiy, Abdurrahmon Samarqandiy, Ashraf Husayn Samarqandiy, Muhammad Hanafiy Tabriziy va yana bir necha olimlar ijod qilgan va o'zidan bebaho meros qoldirib ketgan. Shunday ulamolardan eng yorqini va bahs-munozara odobi nazariyasiga tamal toshini qo'ygan allomalardan biri Azudiddin Iyjiydir. Olimning bu sohada yozilgan eng mashxur asari "Bahs-munozara odobi risola" [2]sidir. Bu risola "Azudiddin risolasi" nomi bilan mashxur bo'lgan va ko'pgina oliygohlarda shu nom bilan ataladi. Bu risola atigi 10 qatordan iboratdir. O'zining shu kichkina hajmi bilan bu risola bahs munozara qilish san'ati sohasida o'sha davrda katta shov-shuvлага sabab bo'ldi. Va bu asarga bir necha o'nlab sharhlar yozildi.[3] Bunday sharhlarga Isomiddin Ibrohim Muhammad Israfayniy "Azudiddin Iyjiyning risolasiga sharh"[2], Ali ibn Muhammad ibn Xusayniy tomonidan yozilgan "Azuziddin risolasi"[2], Muhammad Sodiq ibn Darvish Muhammad "Azudiddin risolasi"[2], Muhammad Hanafiy Tabriziy tomonidan yozilgan "Munozaraning odobi"[2] kabi asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qadimgi qo'lyozmalar fondida saqlanayotga bu asar nastaliq yozuv turida yozilgan, hajmi bir betdan iborat (310b) va 27x15,5 hajmidadir. Restovratsiya qilingan. CBP, III, n 7055; Альв (а), IV, n 5293-5307. Muqovasi qattiq qog'ozdan qilingan, to'q qizil rangda. Muqovalovchining imzosi: Muhammad Nosir 1255/1839. Asar basmala bilan boshlangan va Allohga hamd aytilgan. Kolofonda:

تمت الرسالة في الادب

Azuziddin Iyjiyning to‘liq ismi Azudiddin Abdurrahmon ibn Ahmad Iyjiydir(1281-1355y.y). U Eronning Iyj viloyatida tug‘ilib, o‘sha yerda ijod bilan shug‘ullangan. Musulmon faylasufi, kalom ilmining yorqin namoyondasi, kalom ilmini “peripatos” mактаби qonuniyatlariga asosan tizimlashtirgan alloma hisoblanadi. “Peripatos” maktabiga mill.avv. 335-yilda Arastu tomonidan asos solingan. “Peripatos” “sayr qilish” ma’nosini beradi. Chunki Arastu shogirdlariga sayr qilish davomida falsafadan ta’lim b ergan. Va bu maktab tahminan ming yil faoliyat olib b organ. Likeya(Peripatos) maktabida o‘sha davr falsafa va fanining barcha sohalarini qamrab oluvchi kompleks bilimlar tizimi o‘qitilgan. Aflatun falsafasi Arastuga falsafasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan, ammo u ba’zi jihatlari bilan farq qilgan.[4]

Iyjiy navqiron paytlaridanoq Eronning turli viloyatlarida hukmdorlar saroyida istiqomat qilgan va oliy sudya – qozi lavozimida faoliyat olib b organ. 1355 – yilda ma’lum bo‘lmagan sabablarga ko‘ra hibsga olinadi va Iyj yaqinidagi qal’ada vafot etadi.

Iyjiy ijodi serqirra hisoblanadi. Uning ijodida kalom, fiqh, tafsir, notiqlik(balog‘at) va dialektika, axloqshunoslik, tarixshunoslikka oid asarlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu asarlarning aksariyati uning homiylari bo‘lmish – Ilxon vaziri G‘iyosiddin va Sheroz hukmdori Abu Isxoqga bag‘ishlangan edi. Uning asarlari mashhurligining sababi ularga ko‘plab sharhlar yozilganlidandir. Bugungi kunda al-Ijiyning ayrim asarlari Qohiradagi al-Azhar universitetida, Tunisdag‘i az-Zaytun universitetlarida o‘rganilmoqda[5]. Al-Ijiyning “Mavoqif” (“Bekatlar”) asari ash’ariy kalom ilmining arabiylar peripatizm bilan sintez bosqichidagi ensiklopediyasidir. U 4 jilddan iborat bo‘lib, har biri katta formatda 500 sahifadan iborat bo‘lib, Ali Jurjoniy (vafoti 1413-yil) va boshqa sharhlovchilarining lug‘atlari bilan birgalikda sunniylikdagi kalomga oid eng katta hajmli asar hisoblanadi. Kitob olti qismdan iborat bo‘lib, birinchi to‘rttasi kalomga oid bahs-munozaralarning falsafiy asoslariga bag‘ishlangan. Kitobning so‘nggi ikki qismida ilohiy masalalar yoritiladi. Keyingi qismlarida Allohning mohiyati va sifatlari, ko‘rib chiqiladi. Ijiyning shogirdi Taftazoniyning “Maqosid” risolasi ham huddi shu tartibda yoziladi.[6] “Mavoqif” kitobi asrlar davomida kalomga oid asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib kelgan.

Iyjiyning 10 qatordan iborat “Bahs-munozara odobi risolasi” ilmiy munozara qilish nazariyasi haqida yozilgan bo‘lib, unda turli xil uslublar ham ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga Iyjiy istidlol uslubini kiritib, bu sohada o‘ziga xos

kashfiyotini yaratgan. Azudiddin Iyjiyning o‘zi ham yozgan asarlarida bu uslubdan keng foydalangan.[7]

Xo‘sh, bu uslub qanday ma’noni anglatadi va uning qo‘llanilishi qanday? “Istidlol” so‘zi lug‘atda – “dalolat” so‘zidan yasalib, “yo‘l ko‘rsatmoq, rahbarlik qilmoq” ma’nolarini beradi. Istilohiy ma’noda esa da’voni isbotlash uchun “dalil izlamoq, dalil keltirmoq” ma’nosida qo‘llaniladi. Ismoil Fenni Eltug‘rulning xulosasiga ko‘ra “istidlol so‘zining fransuzcha muqobili “raisonnement”dir. Shu bilan birga, uning fikricha, bahs- munozara jarayonida qo‘llaniladigan induksiya, dededuksiya va raisonnement usullarini nomlarini jamlab “inference” deyish to‘g‘riroq bo‘ladi.[8] Bitta atamada bahs-munozarada qo‘llaniladigan 3 xil usulning ma’nosini jamlashni taklif etadi.

Sharq madaniyatida bahs-munozara qiluvchilar Imom G‘azzoliy va Abdurrahmon Samarcandiylar ta’kidlaganidek, jamiyat uchun kerakli va foydali mavzular yuzasidan qilinishi zarur. Ilm ahli o‘rtasida qilingan munozaralarda esa bahslashuvchilar bir-birini tinglashi, hurmat qilishi lozim, mabodo qarshi fikr paydo bo‘lganda ham o‘zining fikriga dalil keltirish, o‘zi da’vo qilayotgan fikrni isbotlashi kerak. Aynan mana shu odob axloq me’yori Azuziddin Iyjiy tomonidan qo‘llab quvvatlangan va bu bahs-munozara qilishda axloq me’yorlariga amal qilishning ko‘rinishlaridan biri deb bemalol aytal olamiz.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, musulmon Sharqida bahs-munozara janrida yozilgan manbalar talaygina. Va biz bu yodgorliklarning deyarli barchasini Sharq didaktikasiga qo‘shilgan ulkan hissa deb baholaymiz. Xususan, Azuziddin Iyjiy tomonidan yozilgan “Bahs-munozara odobi risolasi” aynan shu uslubda axloq me’yorlariga amal qilish tizimini kiritgan didaktik asar hisoblanadi. Didaktika har qanday predmetni yoshlarga o‘qitish va uning mazmunini singdirishda ta’lim va ma’rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullaridir. Ta’lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham didaktika va fanlar o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash katta ahamiyatga ega.

Shak-shubha yo‘qki, olimning bu asardagi fikr-mulohazalari ko‘zlagan maqsadlari Sharqona didaktika, axloq me’yorlarining jamiyatning barcha jabhalariga kirib borishini va shuurimizga singgishiga undaydi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

## **REFERENCES**

1. <https://islamansklopedisi.org.tr/munazara>
2. Собрание Восточных Рукописей Академии Наук Республики Узбекистан. Издательство «Фан» АН РУз (бундан кейин - СВР), 2017 г. Инв №8580/XI. – В.

348.

3. Kâtib Çelebi, *Keşfû’z-żunûn ‘an esâmi’l-kütüb ve’l-fünûn* (nşr. Kilisli Muallim Rifat – Şerefeddin Yaltkaya), I-II, İstanbul Tom I. – B. 41.
4. Ушканов.А.Ф.Роль «сократического» диалога в гимнасиях Платона и Аристотеля. УДК 37.032. Pedagogical Journal. 2017, Vol. 7. Is. 1A.
5. Иджи / Т. Ибрагим // Новая философская энциклопедия: в 4 т. / пред. науч.-ред. совета В. С. Стёпин.— 2-е изд., испр. и доп.— М.: Мысль, 2010. – В. 2816.
6. Ибрагим Т. К. и Сагадеев А. В. ал-Иджи // Ислам: энциклопедический словарь / Отв. ред. С. М. Прозоров. — М.: Наука, ГРВЛ, 1991. ISBN 5-02-016941-2. – В. 91.
7. Taşköprizâde, *Miftâhu’s-sa ‘âde* (nşr. Refik el-Acem – Ali Dahrûc), Beirut 1998. – B. 236.
8. İsmail Fenni [Ertuğrul], *Lugatçe-i Felsefe*, İstanbul 1341. – B. 355-356, 583.